



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari | 10 |
| <i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i> | |
| Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari | 15 |
| <i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i> | |
| Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari | 21 |
| <i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i> | |
| Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati | 25 |
| <i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i> | |
| Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni | 28 |
| <i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i> | |
| Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi | 32 |
| <i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i> | |
| Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari | 37 |
| <i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i> | |
| Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv | 41 |
| <i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i> | |
| Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati | 44 |
| <i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida) | 47 |
| <i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i> | |
| Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities | 51 |
| <i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i> | |
| Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi | 55 |
| <i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i> | |
| Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari | 59 |
| <i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i> | |
| Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов) | 63 |
| <i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i> | |
| The Importance of Forming a Schedule for High School Students | 67 |
| <i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i> | |
| Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish | 70 |
| <i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i> | |
| Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ... | 75 |
| <i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i> | |
| Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari | 78 |
| <i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i> | |
| Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari | 83 |
| <i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i> | |
| Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari | 86 |
| <i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i> | |
| O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati | 91 |
| <i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i> | |



| | |
|--|-----|
| Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ | 95 |
| Мансурова Гульмира Рафаэловна | |
| Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики | 101 |
| Рауфова Озода | |
| Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari | 105 |
| Choriyeva Dildora Ismat qizi | |
| Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida | 109 |
| Tangriyev Abdulkarim To'vashevich | |



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MATNNI TUSHUNISH VA TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (PIRLS DASTURI MISOLIDA)

Abduraxmanova Charos Burxanovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Samarqand filiali pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning lingvodidaktik hamda metodik asoslari yoritilgan. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturining konseptual doirasi va kognitiv o'lchovlariga tayangan holda, 4-sinf o'quvchilarining axborotni izlab topish, to'g'ri va mantiqiy xulosalar chiqarish, matn elementlarini integratsiya qilish hamda uning strukturaviy-mazmuniy xususiyatlarini tanqidiy baholash qobiliyatlarini shakllantirish bo'yicha metodik tizim taklif etilgan. Maqolada zamonaviy o'zbek va xalqaro olimlarning qarashlari tahlil qilinib, "Uch bosqichli matn didaktikasi" modeli asosida ishlab chiqilgan interfaol topshiriqlar, badiiy matnlar ustida ishlash bo'yicha eksperimental tadqiqot natijalari hamda statistik ko'rsatkichlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, PIRLS, matnni tushunish, o'qish savodxonligi, kognitiv darajalar, axborotni qayta ishlash, mantiqiy fikrlash, pedagogik metodika, tanqidiy tahlil, lingvodidaktika.

Abstract: This article highlights the linguodidactic and methodological foundations for developing text-processing competencies in primary school students during their native language and reading literacy lessons. Based on the conceptual framework and cognitive dimensions of the PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) international assessment program, a methodological system is proposed to develop 4th-grade students' abilities to locate information, draw accurate and logical conclusions, integrate textual elements, and critically evaluate their structural and content-related features. The article analyzes the views of contemporary Uzbek and international scholars, examines interactive tasks developed on the basis of the "Three-Level Text Didactics" model, and presents the results of experimental research as well as statistical indicators related to work with literary texts.

Key words: primary education, PIRLS, text comprehension, reading literacy, cognitive levels, information processing, logical thinking, pedagogical methodology, critical analysis, linguodidactics.

Аннотация: В данной статье освещены лингводидактические и методические основы развития компетенций работы с текстом у учащихся на уроках родного языка и читательской грамотности в начальных классах. Опираясь на концептуальные рамки и когнитивные измерения международной программы оценки качества образования PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), предложена методическая система формирования у учащихся 4-х классов навыков поиска информации, построения правильных и логических выводов, интеграции элементов текста, а также критической оценки его структурно-содержательных особенностей. В статье проанализированы взгляды современных узбекских и зарубежных учёных, рассмотрены интерактивные задания, разработанные на основе модели "Трёхуровневая дидактика текста", а также приведены результаты экспериментального исследования и статистические показатели работы с художественными текстами.

Ключевые слова: начальное образование, PIRLS, понимание текста, читательская грамотность, когнитивные уровни, обработка информации, логическое мышление, педагогическая методика, критический анализ, лингводидактика.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va shiddatli axborot oqimi davrida ta'lim tizimining bosh maqsadi o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni berish emas, balki ularda mustaqil fikrlash, axborotni saralash, tahlil qilish va hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini, ya'ni funksional savodxonlikni shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvi va xalqaro baholash dasturlarida, xususan, IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etiladigan PIRLS (Progress

in International Reading Literacy Study) tadqiqotlarida faol ishtirok etishi boshlang'ich ta'lim mazmunini metodik jihatdan tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. PIRLS dasturi boshlang'ich ta'limning yakuniy bosqichi bo'lgan 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasi va matni tushunish sifatini xalqaro miqyosda qiyosiy baholovchi eng nufuzli monitoring tizimlaridan biridir. Negaki, 4-sinf bolaning "o'qishni o'rganish" (learning to read) bosqichidan "o'rganish uchun o'qish" (reading to learn) bosqichiga o'tadigan muhim davri hisoblanadi ^[1].

Uzoq yillar davomida o'zbek maktablarida o'qish darslari asosan mexanik o'qish texnikasini rivojlantirishga, matni qayta so'zlab berish (reproduktiv daraja) yoki yod olishga yo'naltirilgan edi. Biroq bunday yondashuv o'quvchining kognitiv salohiyatini cheklab qo'yadi. Axborot asrida matndagi yashirin ma'nolarni (subtekstni) ilg'ash, muallifning estetik va g'oyaviy maqsadini tahlil qilish, matnning tarkibiy qismlarini tanqidiy baholash hayotiy ehtiyojga aylandi. Shu sababli boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida PIRLS talablariga mos keladigan kognitiv topshiriqlar tizimini joriy etish hamda yangi lingvodidaktik modelni ishlab chiqish pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Matn ustida ishlash, o'qish madaniyati va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi pedagogika, psixolingvistika va didaktika fanlari doirasida keng tadqiq etib kelinmoqda. K.D. Ushinskiy va V.A. Suxomlinskiy kabi klassik pedagoglar o'qish darslarida "tushunib fikrlash" va "ongli o'qish" konsepsiyasini ilgari surganlar. G'arbiy Yevropa va AQSh tadqiqotchilaridan I. Mullis, M. Martin, P. Foy kabi PIRLS dasturi asoschilari o'qish savodxonligini shunchaki mexanik ko'nikma emas, balki "jamiyat tomonidan talab qilinadigan va shaxs tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish hamda ulardan foydalanish qobiliyati" deb ta'riflaydilar. Rossiyalik olim N.N. Smetannikova matn bilan ishlashning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqib, o'qishni kognitiv faoliyat turi sifatida tadqiq etgan.

Respublikamiz pedagog olimlaridan R. Safarova, M. Jumayev va K. Qosimova darsliklarning umumiy didaktik asoslarini yaratgan bo'lsalar, zamonaviy boshlang'ich ta'lim metodikasida xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) talablarini amaliyotga joriy etish muammolari D.T. Robbanayeva, S. Matchonov va H. G'ulomova kabi tadqiqotchilar tomonidan tizimli ravishda o'rganilmoqda.

Xususan, D.T. Robbanayeva o'zining ilmiy izlanishlarida boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning matnli axborotlar bilan ishlash strategiyalarini shakllantirish, innovatsion va interfaol topshiriqlar orqali bolaning kognitiv ko'nikmalarini faollashtirish zarurligini ilmiy asoslab beradi. Olimaning yondashuviga ko'ra, matni tushunish shunchaki harflarni so'zga aylantirish (dekodlash) emas, balki matn zamiridagi kontekst hamda uning yashirin qatlamlarini shaxsning hayotiy tajribasi bilan sintez qilish jarayonidir ^[2, 3].

Biroq bugungi kunda milliy darsliklar yangilanayotgan bo'lsa-da, amaliyotda o'qituvchilar hali ham o'quvchilarga matn yuzasidan asosan reproduktiv (faktik) savollar berish bilan cheklanib qolmoqdalar. PIRLS xalqaro baholash mezonlariga mos keladigan kognitiv va tahliliy topshiriqlarni dars jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish metodikasi maktab amaliyotida hali keng ommalashmagan. Ushbu nomuvofiqlik mazkur tadqiqotning metodologik asosini belgilashga xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi PIRLS xalqaro baholash tizimi talablari va zamonaviy milliy metodik maktablar qarashlari asosida 4-sinf o'quvchilarida matni tushunish hamda tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metodik tizimni yaratish va uning samaradorligini amaliyotda sinab ko'rishdan iborat. Tadqiqot doirasida "Uch bosqichli matn didaktikasi" modeli hamda PIRLS dasturining 4 ta kognitiv darajasi o'zaro integratsiya qilindi. 1. Uch bosqichli matn didaktikasi modeli. Matn ustida ishlash jarayoni chiziqli emas, balki bosqichma-bosqich chuqurlashib boruvchi tizim sifatida tashkil etildi. Matnoldi bosqichi (Pre-reading): maqsad – o'quvchilarning mavzu bo'yicha tayanch bilimlarini faollashtirish, motivatsiya uyg'otish va matn sarlavhasi hamda rasmlari asosida mazmunni bashorat qilish. Metodlar: "Klaster", "Aqliy hujum", "Gipotezalar daraxti".

Matni o'qish jarayoni bosqichi (While-reading): maqsad – matni chuqur va faol idrok etish, kalit so'zlarni aniqlash, voqealar rivojini tahlil qilish hamda yashirin ma'nolarga e'tibor qaratish. Metodlar: "INSERT" (izohli o'qish), "To'xtalishlar bilan o'qish", "Savol berish san'ati". Matndan keyingi bosqich (Post-reading): maqsad – matn mazmunini umumlashtirish, muallif g'oyasini shaxsiy hayotiy tajriba bilan bog'lash, qahramonlar xulq-atvorini baholash va ijodiy fikr bildirish. Metodlar: "Venn diagrammasi", "Sinkveyn", "Olti fikrlovchi qalpoq", "FSMU" ^[4, 5]. PIRLS kognitiv darajalari asosida savollar tizimi. O'quvchilarga taqdim etiladigan matnlar bo'yicha an'anaviy savollar o'rniga PIRLS dasturining to'rtta kognitiv jarayonini qamrab oluvchi savollar matritsasi ishlab chiqildi: ochiq-oydin ma'lumotni topish (faktik daraja); to'g'ridan-to'g'ri xulosa chiqarish (mantiqiy daraja); interpretatsiya va integratsiya (talqin darajasi); tanqidiy baholash (ekspertlik darajasi).



Amaliy metodik namuna. Metodikaning amaliy ifodasi sifatida 4-sinf "O'qish savodxonligi" darslarida qo'llanishi mumkin bo'lgan keysni ko'rib chiqamiz. Matn: "Eski chinor va chumchuq" (badiiy matn parchasi). "Qish qattiq keldi. Qari chinor o'zining qalin po'stlog'i ostida sovuqdan zo'rg'a himoyalaniib turardi. Bir kuni qanoti singan kichkina chumchuq uchib kelib, chinorning shoxiga qo'ndi. U titrar va boshpana so'rashga ham botinolmasdi. Chinor buni sezdi. O'zining eng issiq va pana kovagidan joy berdi, qish bo'yi uni shamoldan asradi. Bahor keldi. Chumchuq tuzaldi, lekin u chinorni tashlab ketmadi. Boshqa qushlar yam-yashil yosh daraxtlarga qo'nganda, u kekxa, po'stlog'i ko'chgan chinor shoxida eng chiroyli qo'shiqlarini kuylardi. Chunki chinorning qalbi yosh edi..."

PIRLS talablari asosida tuzilgan 4 darajali topshiriqlar tizimi:

- **1-daraja (ochiq ma'lumotlarni aniqlash):** Chumchuq nima sababdan uchib keldi va chinor unga qayerdan joy berdi? (Ko'nikma: matndan faktlarni to'g'ridan-to'g'ri qidirib topish.)
- **2-daraja (to'g'ridan-to'g'ri xulosa chiqarish):** Chumchuq nega bahor kelganda ham boshqa yam-yashil daraxtlarga uchib ketmadi? (Ko'nikma: matndagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va bog'lash.)
- **3-daraja (ma'lumotlarni talqin qilish):** "Chinorning qalbi yosh edi" degan jumlaning qanday tushunasiz? Muallif bu bilan nima demoqchi? (Ko'nikma: ko'chma ma'nolarni va subtekstni tahlil qilish.)
- **4-daraja (matn mazmuni va tilini baholash):** Agar siz muallif bo'lganingizda, hikoyani qanday yakunlagan bo'lardingiz? Hikoyadan kelib chiqib, "oqibatli bo'lish" tushunchasiga o'z munosabatingizni bildiring. (Ko'nikma: shaxsiy hayotiy tajriba bilan qiyoslash va qadriyatlarini baholash.)

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida eksperimental tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajribaga umumta'lim maktablarining 4-sinf o'quvchilaridan jami 120 nafar o'quvchi jalb etildi (60 nafari eksperiment guruhiga, 60 nafari nazorat guruhiga) [6, 7]. Nazorat guruhida darslar amaldagi an'anaviy darslik va metodika asosida tashkil etildi. Eksperiment guruhida esa yuqorida taklif etilgan "Uch bosqichli matn didaktikasi" modeli hamda PIRLS yo'nalishidagi 4 darajali savollar tizimi amaliyotga tatbiq etildi. O'quvchilarning matn tushunish darajasi maxsus diagnostik testlar yordamida baholandi va olingan natijalar foiz ko'rsatkichlarida quyidagi jadvalda aks ettirildi:

1-jadval: O'quvchilarning kognitiv darajalar bo'yicha o'sish dinamikasi

| Matn o'zlashtirish mezonlari (PIRLS kognitiv darajalari) | Nazorat guruhi (An'anaviy) | Eksperiment guruhi (Eksperimentdan oldin) | Eksperiment guruhi (Eksperimentdan so'ng) |
|--|----------------------------|---|---|
| 1. Ochiq ma'lumotlarni aniqlash | 68% | 65% | 88% |
| 2. To'g'ridan-to'g'ri xulosa chiqarish | 45% | 42% | 68% |
| 3. Ma'lumotlarni talqin qilish (interpretatsiya) | 30% | 28% | 54% |
| 4. Matn mazmuni va tilini baholash | 16% | 15% | 39% |

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy metodika qo'llanilgan nazorat guruhida o'sish sur'ati nisbatan past bo'lib, o'quvchilar 3- va 4-darajali savollarni bajarishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelganlar. Eksperiment guruhida esa tizimli yondashuv natijasida matn tanqidiy baholash ko'nikmasi 15% dan 39% ga (+24%), ma'lumotlarni talqin qilish darajasi esa 28% dan 54% ga (+26%) oshdi. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual va kognitiv imkoniyatlari an'anaviy pedagogik qarashlarda ko'rsatilganidan ko'ra ancha yuqoridir. Biroq eski ta'lim tizimidagi "yodlash va qayta gapirish" andozasi bolalarda ijodiy fikrlashning cheklanishiga olib keladi.

D.T. Robbanayeva o'z ishlarida qayd etganidek, bolalarda matnli axborotni interpretatsiya qilish ko'nikmasini shakllantirish dars jarayonida beriladigan savollarning kognitiv muvozanatiga bevosita bog'liqdir. Agar o'qituvchi faqat reproduktiv savollar bilan cheklansa, o'quvchida tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishga bo'lgan ehtiyoj yetarli darajada shakllanmaydi. PIRLS dasturi talablarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda quyidagi pedagogik omillar muhim ahamiyat kasb etadi: Matn tanlash mezonlari. Darsliklardagi matnlar faqat quruq o'git-nasihatdan iborat bo'lmashligi, balki ularda o'quvchini mushohada yuritishga undovchi yashirin muammoli vaziyatlar ham mavjud bo'lishi lozim. Pedagogik muloqot uslubi. O'qituvchi dars jarayonida "yagona to'g'ri javob egasi" rolidan voz kechib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi fasilitator vazifasini bajarishi zarur.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi metodik tavsiyalar ilgari suriladi: Birinchidan, boshlang'ich sinf darslarida mexanik o'qish texnikasini (tez o'qishni) baholash tizimidan voz kechib, asosiy e'tiborni matnning mantiqiy-tanqidiy tahliliga qaratish lozim. Ikkinchidan, darsliklardagi topshiriq va savollarning kamida 40-50 foizi o'quvchini mustaqil mulohaza yuritishga undaydigan ochiq tipdagi savollardan iborat bo'lishi zarur. Uchinchidan, umumta'lim maktablarida darslarni "Uch bosqichli matn didaktikasi" modeli asosida loyihalash metodik madaniyatini shakllantirish zarur. To'rtinchidan, malaka oshirish institutlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash bo'yicha maxsus seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4097073>
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova H., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009. – 352 b.
3. Safarova R. va boshqalar. Boshlang'ich sinf darsliklarining didaktik asoslarini takomillashtirish: monografiya. – Toshkent: Fan, 2012. – 180 b.
4. Robbanayeva D. T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari // Pedagogika jurnali. – 2021. – 3-son.
5. Robbanayeva D. T. PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari asosida ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etish metodikasi // O'zluksiz ta'lim. – 2022. – 5-son.
6. Mullis I. V. S., Martin M. O., Foy P., Hooper M. PIRLS 2016 International Results in Reading. – Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2017.
7. Mullis I. V. S., Martin M. O. (Eds.). IEA's Progress in International Reading Literacy Study (PIRLS 2021): Assessment Frameworks. – Boston College, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.